

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSH MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI***



***“ENERGETIKA FAKULTETI”
“ELEKTR ENERGETIKA” KAFEDRASI***

***ELEKTR MEXANIKA FANIDAN
KURS LOYIXASINI BAJARISHGA OID
USLUBIY KO'RSATMA***

QARSHI 2014 YIL

Tuzuvchilar:

QarMII “Elektr Energetika” kafedrası
mudiri O.E.Zaynieva, k/o’ Q.G’.Burxonov,
ass. N.A.Qurbonov

Ichki taqrizchi:

QarMII “Elektr Energetika” kafedrası katta
o’qituvchisi A.N.Mamatqulov

Tashqi taqrizchi:

Toshkent Davlat Texnika Universitetining
“Elektr mexanika va kabell texnikasi” kafedrası
mudiri professor t.f.d. N.B.Pirmatov

Elektr mexanika fanining transformatorlar qismi bo’yicha kurs loyihasini bajarishga oid uslubiy ko’rsatma. / O.E.Zaynieva, Q.G’.Burxonov, N.A.Qurbonov O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi.–Q.: QarMII, 2014 – 30 b.

“Elektr mexanika” fanidan kurs loyihasini bajarishga oid ushbu uslubiy ko’rsatma 5310200-Elektr energetika (tarmoqlar va yo’nalishlar bo’yicha) ta’limi yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo’ljallangan bo’lib, O’zbekiston Respublikasi Oliy va O’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2013 yil 13.03 dagi № 87 sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “Elektr mexanika” fani dasturi asosida tayyorlandi. Uslubiy ko’rsatma uch fazali ikki chulg’amli moy bilan sovutiladigan kuch transformatorlarini loyihalash masalalari batafsil yoritilgan.


Uslubiy ko’rsatma Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti uslubiy kengashi (Bayon № ----“---” ----- 2014 yil) yig’ilishida muhokama qilinib, o’quv jarayonida foydalanishga va chop etishga tavsiya etilgan.

Kirish

Hozirgi davrda energetika tizimida shaxarlar, qishloq va xalq xo'jaligining turli sohalarining elektr ta'minoti 50 Gst chastotali (AQSh, Yaponiya va Janubiy Afrika mamlakatlarida 60 Gst) bo'lgan o'zgaruvchan tokning uch fazali sistemasida elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi turli xil stanstiyalar (issiqlik elektr stanstiyalari, gidro elektr stanstiyalar, atom elektr stanstiyalar, shamol elektr stanstiyalar va boshqalar) tomonidan ishlab chiqarilmoqda.

Elektr stanstiyalarda o'rnatilgan generatorlarning kuchlanishi standartlashtirilgan va 6600, 11000, 13800, 15750, 18000, 20000 V ni tashqil etishi mumkin. Elektr stanstiyani uzoq masofalarga uzatish uchun iqtisodiy jixatdan generator kuchlanishini 110, 220, 330, 500 kV va undan yuqori kuchlanishgacha oshirish zarur bo'ladi (masofaga va uzatilayotgan quvvatga bog'liq holda). So'ngra taqsimlovchi podstanstiyalarda kuchlanishni 6 yoki 10 kV gacha (shaxarlar va sanoat ob'ektlarida) yoki 35 kV gacha (qishloq joylarda taqsimlovchi tarmoqlar katta uzunlikka ega bo'lganda) pasaytirish talab etiladi. Va nihoyat zavod stexlariga va yashash uylariga kirish uchun kuchlanish 380, 220 ba'zan 127 V gacha pasaytirish kerak. Qozonxonani yoritishda yoki nam binolarning mexanik stexlarini yoritishda kuchlanish hayot xavfsizligi nuqtai nazaridan 12, 24 yoki 36 V gacha kamaytirilishi zarur.

Elektr energiyani uzatish va taqsimlash sxemasi 1- rasmda keltirilgan.



1-rasm. Elektr energiyani uzatish va taqsimlash sxemasi.

Transformatorlar elektr energiyani ishlab chiqarmaydi, balki uni transformastiyalaydi, ya'ni elektr kuchlanish qiymatini o'zgartiradi. Bunda transformatorlar kuchlanishni oshiruvchi agar ular kuchlanishni oshirish uchun mo'ljallangan bo'lsa va kuchlanishni pasaytiruvchi agar ular kuchlanishni pasaytirish uchun mo'ljallangan bo'lsa bo'lishi mumkin. Transformatorlar kuchlanishni oshiruvchi yoki pasaytiruvchi bo'lishi ham mumkin qo'llanilishiga qarab ya'ni qaytarlik xususiyatiga ega bo'ladi. Transformator lotincha – transform- o'zgartiraman ma'nosini bildiradi. Energiyani yoki obektlarning biror muhim xossasini o'zgartirish, boshqa turga aylantirish uchun xizmat qiluvchi qurilma. Induktiv jihatdan ikki yoki undan ko'p chulg'amlari bog'langan bir turdagi kuchlanishni boshqa turdagi kuchlanishga elektromagnit induksiya yo'li bilan o'zgartiradigan statik elektromagnit apparat transformator deyiladi.

Kuch transformatorlari yuqori F.I.K. ga ega bo'ladilar 95-99,5% gacha, quvvatga bog'liq holda. Elektr energiyani taqsimlash sxemasidan ko'rinib turibdiki, uni ishlab chiqarish obektidan istemolchiga etkazishgacha bir nechta transformastiyalash pog'onasi talab etiladi. Shu sababli transformatorlarning o'rnatilgan quvvatlari (liniyadagi barcha transformatorlarning) generatorlar quvvatidan bir necha marta ortiq bo'ladi.

Bajaradigan vazifasiga ko'ra transformatorlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) *kuch transformatorlari*; 2) *maxsus transformatorlar*. Kuch transformatorlari o'z navbatida: *umumiy maqsadli* va *sohaviy* turlarga bo'linadi.

Elektr energiyani uzatish, qabul qilish hamda ishlatishga mo'ljallangan elektr tarmoqlari va uskunalarida elektr energiyani o'zgartirish (kuchlanishni oshirish yoki kamaytirish) vazifasini bajaradigan transformatorni **kuch transformatori** deyiladi.

Normal sharoitda ishlayotgan elektr tarmog'iga ulash uchun, yoxud maxsus ish sharoiti, yuklamaning xarakteri yoki ish rejimi bilan farq qilmaydigan elektr energiya iste'molchilarini bevosita ta'minlash uchun ishlab chiqarilgan transformatorlarni **umumiy maqsadli kuch transformatorlari** deyiladi.

Fazalar soniga ko'ra transformatorlar bir, uch va ko'p fazali (sohaviy) turlarga bo'linadi.

Elektr jihatdan o'zaro ulanmagan ikki (yuqori va past kuchlanishli) chulg'am bilan ta'minlangan transformatorni **ikki chulg'amli** transformator deyiladi. Past kuchlanishli chulg'ami teng ikkiga bo'lingan kuch transformatorlarini ham, ko'pincha ikki chulg'amlilar turkumiga kiritadilar.

Agar transformatorning (yoki avtotransformatorning) har fazasida uchta [yuqori kuchlanishli (YuK), o'rta kuchlanishli (O'K) va past kuchlanishli (PK)] elektr jihatdan ulanmagan (avtotransformatorlarda esa YuK va O'K chulg'amlari elektr jihatdan ulangan) chulg'amlari bo'lsa, bunday holda **uch chulg'amli** transformator (yoki avtotransformator) deyiladi.

Elektr energiyaning bir qismi birlamchi tarmoqdan ikkinchisiga chulg'amlari elektr jihatdan ulanganligi hisobiga uzatilib, boshqa qismi esa magnit maydoni orqali uzatiladigan transformatorning o'ziga xos ko'rini-shini **avtotransformator** deyiladi.


Transformatorning (yoki avtotransformatorning) qaysi chulg'amiga elektr energiya berilsa, uni **birlamchi** chulg'am, elektr tarmog'iga yoki iste'molchiga elektr energiya uzatilgan chulg'amni **ikkilamchi** chulg'am deyiladi.

Agar transformator (yoki avtotransformator) birlamchi chulg'amining nominal kuchlanishi ikkilamchi chulg'am nominal kuchlanishidan kichik ($U_{1N} < U_{2N}$) bo'lsa **o'sh iruvchi**, katta ($U_{1N} > U_{2N}$) bo'lganida esa – **pasaytiruvchi** transformator (yoki avtotransformator) deyiladi.

Sohaviy kuch transformatorlari elektr transportida (temir yo'l, metro va shahar elektr transporti ta'minotida), elektr pechlarida (masalan, Bekobod metallurgiya kombinatida); **maxsus maqsadli transformatorlar** esa elektr yoyi vositasida payvandlash, to'g'rilagich, aloqa, avtomatika va hisob-lash texnikasi qurilmalarida (buriluvchi transformatorlar – elektr signalini funkstional, ya'ni shakli sinusoidal bo'lgan signalga o'zgartirishda), radiotexnikada va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida kuch transformatorlari hamda maxsus transformatorlarning ayrimlari asosan Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan: Chirchiq transformatorsozlik zavodida («Transformator» OAJ), «ELUS» ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi va «Aziyaelektroenergiya» ilmiy-ishlab chiqarish tashkilotlarida ishlab chiqarilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, Toshkent shahrida kuch transformatorlarini ta'mirlaydigan korxonalardan «Energota'mir» ixtisoslashtirilgan ta'mirlash ishlab chiqarish va «Rotor» ta'mirlash korxonalari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

2-rasm. Kuchlanish klas-si 35 kV quvvati 1000 ÷ 6300 kV·A konstrukstiyasiga mos ke-ladigan pasaytiruvchi kuch transformatori: **1** – bak; **2** – moy uchun ventily; **3** – zaminlash uchun qistirma; **4** – termosi-fonli filtri; **5** – radiator; **6** – kuchlanishni rostlash qayta ulagichi; **7** – kengaytirgich; **8** – moy ko'rsatkichi; **9** – havo quritgich; **10** – chiqaruvchi (saqllovchi) truba; **11** – gaz relesi; **12** –



yuqori kuchlanishli (YuK) chul-

g'am uchun o'tish izolyatori; **13** – qayta ulagich dastagi; **14** – past kuchlanishli (PK) chul-g'amga oid o'tish izolyatori; **15** – transformatorni ko'tarish uchun ilgich; **16** – PK chul-g'amni o'tish izolyatori bilan bog'lovchi o'tkazgich; **17** – magnit o'tkazgich; **18** – YuK chulg'am-ni o'tish izolyatori bilan bog'lovchi o'tkazgich; **19** – yuqorgi va pastki yarmo balkalari; **20** – YuK chulg'am rostdash tarmog'ining simlari; **21** – YuK chulg'am (uning ichida PK chulg'am); **22** – aravacha g'ildiragi

Transformatorlarga *quyidagi asosiy talablar qo'yiladi*, ya'ni:

- a) ishlatishda ishonchli bo'lishi;
- b) ishlab chiqarishda va ishlatishda tejamli bo'lishi;
- c) isroflar standartda belgilangan me'yordan oshmasligi;
- d) parallel ulash shartlarini qanoatlantirishi;
- e) me'yordan ortiqcha qizib ketmasligi;
- f) kuchlanishni rostdashga imkon berishi;
- g) transformatorni ishlatish jarayonida ayrim sabablarga ko'ra sodir bo'ladigan qisqa muddatli (izolyastiya uchun xavfli bo'lgan) o'ta kuchlanishlarga va kam muddatli qisqa tutashuvlardagi transformatorning nominal tokidan ancha katta bo'lgan toklar ta'siriga bardosh berishi zarur.

Transformatorlarning tarkibiy qismlariga magnit o'tkazgich, chulg'am-lar, sovitish sistemasi, himoya qurilmalari va boshqalar kiradi.

Transformatorning nominal kattaliklari. Transformatorlar stan-dart talablariga mos holda texnik shartlar bo'yicha tayyorlanadi va elektr energiyani o'zgartirish bo'yicha ma'lum vazifalarni bajarish uchun belgilanadi. Bu sharoitlardagi transformatorning ishi quyidagi nominal kattalik-lar bilan xarakterlanadi va ular elektr jihozlari kataloglarida hamda transformatorga mahkamlangan pasport taxtachada quyidagilar ko'rsatilgan bo'ladi:

1. Ikki chulg'amli transformator uchun bitta nominal to'la quvvat $S_1 = S_2 = S_N$ (uch chulg'amli transformatorlarda har qaysi chulg'am uchun alohida, ya'ni uchta quvvat) V·A yoki kV·A da ko'rsatiladi:

- a) bir fazali ikki chulg'amli transformator uchun – $S_{1N} = U_{1N} \cdot I_{1N}$;
- b) uch fazali ikki chulg'amli transformator uchun – $S_{1N} = \sqrt{3} U_{1N} \cdot I_{1N} = 3 U_{1Nf} \cdot I_{1Nf}$.

Transformatorlarda FIK juda ham katta bo'lganligidan ikki chulg'amli transformatorlarda birlamchi (S_{1N}) va ikkilamchi (S_{2N}) chulg'am nominal quvvatlari taxminan bir xil bo'ladi, ya'ni $S_{1N} \approx S_{2N}$.

Bulardan tashqari: **1)** nominal chastota f_N ; **2)** fazalar soni m ; chulg'amlarning ulanish sxemasi va guruhi; **3)** qisqa tutashuv kuchlanishi $u_{qt.(\%)}$; **4)** transformatorni tayyorlagan zavodning nomi; transformatorning tayyorlan-gan yili; **5)** transformatorning tipi; **6)** tayyorlangan transformatorga ga to'g'ri keladigan standart nomeri; **7)** sovitish usuli; **8)** massasi; **9)** Nominal kuchlanish va boshqa ayrim ma'lumotlar keltiriladi.

Uch fazali moyli kuch transformatorlarni hisoblash bo'yicha mazkur uslubiy qo'llanma 5310200- Elektr energetika (tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u kurs loyihasini, yakka tartibdagi (individual) topshiriqlarni hisoblashda foydalaniladi.

Transformatorni hisoblash sxemasi

1. Asosiy elektr kattaliklarni aniqlash:

- a) Past kuchlanish (PK) va yuqori kuchlanish (YuK) chulg'amlarining liniya, faza tok va kuchlanishlari;
- b) chulg'amlarning sinov kuchlanishlari;
- v) qisqa tutashish kuchlanishlarining aktiv va reaktiv tashkil etuvchilari.

2. Transformatorning asosiy o'lchamlarini hisoblash:

- a) magnit tizimining konstruktiviyasini va tayyorlash texnologiyasining sxemani tanlash;

- b) magnit tizim indukstiyasini, tunukachalarning (plastinalarni) izolyastiya turini va po'lat listlar qalinligini va markasini tanlash;
- v) chulg'am materialini tanlash;
- g) chulg'am konstrukstiyalarini oldindan taxminiy tanlash;
- d) chulg'amning asosiy izolyastiya oraliqlarini va konstrukstiyasini tanlash;
- e) U_k , R_k va R_0 larning berilgan qiymatini hisobga olib, β ning asosiy o'lchamlarini o'zaro nisbatini tanlash va transformatorning dastlabki hisobi;
- j) magnit tizimning dastlabki hisobi, chulg'am uzunligi (balandligini) va sterjen diametrini aniqlash.
- 3. PK va YuK chulg'amlarini hisoblash:
 - a) PK va YuK chulg'am turlarini tanlash;
 - b) PK chulg'amini hisoblash;
 - v) YuK chulg'amini hisoblash;
- 4. Qisqa tutashish parametrlarini aniqlash:
 - a) konstrukstiya elementlaridagi qo'shimcha, chulg'amlardagi asosiy va qo'shimcha qisqa tutashish isroflarini;
 - b) qisqa tutashish kuchlanishini;
 - v) chulg'amlarning mexanik kuchlarini.
- 5. Magnit tizimning oxirgi hisobi. Salt ishlash parametrlarini aniqlash:
 - a) sterjen va yarmoning aktiv kesim yuzasi va paket o'lchamlari;
 - b) po'latning vazni, sterjen va yarmoning vaznlari;
 - v) salt ishlash isrofi;
 - g) salt ishlash toki.
- 6. Sovitish tizimini hisoblash va issiqlik hisobi:
 - a) chulg'amlarni tekshirishga oid issiqlik hisobi;
 - b) transformatorning gabarit o'lchamlarini aniqlash. Sovitish tizimini (bakni, radiatori sovg'ichni) hisoblash;
 - v) havodan moy va chulg'am haroratlarini oshishi;
 - g) kengaytiruvchi bakning asosiy o'lchamlari va moyning massasi.

TRANSFORMATORNI HISOBLASH.

Topshiriq: Transformator tipi $TM - 160/35$

Transformator quvvati $S = 160kVA$;

Fazalar soni $m = 3$; chastota $f = 50Gst$;

Chulg'amlarning nominal kuchlanishi :

YuK (VN) $U_2 = 35000V$; PK (NN) $U_1 = 11000V$;

Ulanish sxemasi va guruhi $Y/\Delta -11$; chulg'am simi mis;

Qisqa tutashuv kuchlanishi $U_q = 6,5\%$; qisqa tutashuv isrofi $P_q = 2650Vt$;

Salt ish isrofi $P_0 = 660Vt$;

Salt ish toki $i_0 = 2,4\%$;

I ASOSIY ELEKTR KATTALIKLARNI VA IZOLASIYA MASOFALARINI ANIQLASH.

Hisoblashlarni konstantrik chulg'amli sterjn tipli uch fazali transformator uchun bajaramiz.

- 1 Bitta faza va bita sterjn quvvati

$$S_{\phi} = S' = S/3 = 160/3 = 53.33 \text{ kV A}$$

2 Tomonlardagi nominal toklar :

$$\text{YuK} \quad I_2 = \frac{S_H}{\sqrt{3}U_{H2}} = \frac{160}{1.73 \cdot 35} = 2.64 \text{ A};$$

$$\text{PK} \quad I_1 = \frac{S_H}{\sqrt{3}U_{H1}} = \frac{160}{1.73 \cdot 11} = 8.4 \text{ A};$$

3 Faza kuchlanishlari

$$\text{YuK} \quad U_{\phi 2} = U_2 / \sqrt{3} = 35000 / 1.73 = 20231 \text{ V} \quad \text{PK} \quad U_{\phi} = U_1 = 11000 \text{ V}$$

4 Faza toklari

$$\text{YuK} \quad I_{\phi 2} = I_2 = 2.64 \text{ A}; \quad \text{PK} \quad I_{\phi 1} = I_1 / \sqrt{3} = 8.4 / 1.73 = 4.86 \text{ A};$$

5 Chulg'amlarning sinov kuchlanishlari (Ad-2, jadval 4.1, 169 betdan aniqlaymiz)

$$\text{Yuqori kuchlanish chulg'ami YuK uchun } U_{cun} = 85 \text{ kV};$$

$$\text{Past kuchlanish chulg'ami PK uchun } U_{cun} = 35 \text{ kV}.$$

(Eslatma: 1 kV gacha bo'lgan chulg'amlar uchun sinov kuchlanishi $U_{cun} = 5 \text{ kV}$.)

6 Chulg'amlarning sinov kuchlanishlari uchun (Ad-2, jadval 4.4 va 4.5; rasm-4.6; 184-183 betlar) izolyastion masofalarni aniqlaymiz.

$$\text{Yuqori kuchlanish uchun } U_{cun} = 85 \text{ kV uchun (Ad-2, jadval 4.5)}$$

Chulg'amlar orasidagi izolyastion oraliq (o'q kanali, YuK va PK chulg'amlari orasidagi masofa)- $a_{12} = 2,7 \text{ sm} = 27 \text{ mm}$

Yuqori chulg'amdan chulg'am o'raluvchi stilendr uchigacha bo'lgan masofa-

$$l_{112} = 5 \text{ sm} = 50 \text{ mm}$$

YuK chulg'am va yarmo orasidagi masofa- $l_{02} = 7,5 \text{ sm} = 75 \text{ mm}$ (Ad-2, jadval 4.5, 184 betdagi 2-eslatma hisobga olinsin)

$$\text{Qo'shni fazalar YuK chulg'amlari orasidagi masofa- } a_{22} = 2 \text{ sm} = 20 \text{ mm}$$

$$\text{YuK va PK chulg'amlar orasidagi izolyastion to'siqlar qalinligi } - \delta_{12} = 0,5 \text{ sm} = 5 \text{ mm}$$

$$\text{Fazalar orasidagi to'siq qalinligi } - \delta_{22} = 0,3 \text{ sm} = 3 \text{ mm}$$

PK $U_{cun} = 35 \text{ kV}$ uchun (Ad-2, jadval 4.4, 183 bet) past kuchlanish chulg'ami ichki tomonidan sterjngacha

$$\text{bo'lgan kanal oralig'i } a_{01} = 1,5 \text{ sm} = 15 \text{ mm},$$

Past kuchlanish chulg'ami bilan sterjin orasidagi izolyastion to'siq qalinligi $-\delta_{01} = 4 \text{ mm}$

7 Hisoblashning dastlabki ma'lumotlarini aniqlaymiz

$$\frac{a_1 + a_2}{3} = \kappa \sqrt[4]{S'} = 0.62 \cdot \sqrt[4]{53.33} = 0.62 \cdot 2.7 = 1.68 \text{ sm} = 0.0168 \text{ m}$$

Bu erda $k = 0,62$ (Ad-2, jadval 3.3) dan tanlanadi. (Eslatma: Alyumin simlar uchun 3.3- jadvaldan topilgan k ning qiymati 1,25 ga ko'paytiriladi).

$$\frac{a_1 + a_2}{3} \text{ 2 ta chulg'amning keltirilgan kengligi (eni)}$$

Sochilma keltirilgan kanal kengligi (eni) a_p ni aniqlaymiz


$$a_p = a_{12} + (a_1 + a_2) / 3 = 2,7 + 1,68 = 4,38 \text{ sm} = 0,0438 \text{ m}$$

8 Qisqa tutashuv kuchlanishinig aktiv tashkil etuvchisi

$$U_a = P_q / 10 \cdot S = 2650 / 10 \cdot 160 = 1.66\%$$

9 Qisqa tutashuv kuchlanishinig reaktiv tashkil etuvchisi

$$U_p = \sqrt{U_q^2 - U_a^2} = \sqrt{6,5^2 - 1,66^2} = \sqrt{42,25 - 2,76} = \sqrt{39,49} = 6,28\%$$



2-rasm. Transformatorning asosiy o'lchamlari.

- 10 Uch fazali sterjnlı sovuqlayın ishlov berilgan magnit sistemasini tanlaymiz

Sterjndagi induksiya $B_c = 1,56Tl$ (Ad-2, jadval 2.4, 78-bet)

Sterjn kesimida 6 ta pog'ona, doirani to'ldirish koeffisienti $k_{kp} = 0,913$ (Ad-2, jadval 2.5, 82-bet), plastinalar izolastiyasi issiqqa chidamli izolyastion qoplamadan iborat; Sterjn aktiv kesimi maydonining (toza po'lat) sterjn kesimi pog'onali fegura maydoniga nisbati koeffisientini aniqlaymiz: $k_3 = 0,97$ (Ad-2, jadval 2.2, 77-bet).

Doira maydonini po'lat bilan to'ldirish koeffisienti $k_c = k_{kp} \cdot k_3 = 0,913 \cdot 0,97 \approx 0,89$. Sterjnning pog'onali kesimi joylashtirilgan aylana diametri (Ad-2, jadval 2.5, 82-bet); $d=0,16$ m. Yarmo ko'p pog'onali. Pog'onalar soni 5 ta. Yarmoni kuchaytirish koeffisienti $k_n = 1,015$ (Ad-2, jadval 2.8, 92-bet). Yarmodagi induksiya $B_n = B_c / k_n = 1,56 / 1,015 = 1,54Tl$; To'g'ri ulanish joyidagi havo oralig'i indukstiyesi $B_3 = B_c = 1,56Tl$; Egri ulanish joyida

$B_3 = B_c / \sqrt{2} = 1,56 / 1,41 = 1,1Tl$ (Ad-2, jadval 3-6, 131-bet). Chulg'amlardagi asosiy isroflarni qisqa tutashuv isroflariga nisbatini hisobga oluvchi koeffisientini topamiz $k_o = 0,96$. Rogovski koeffisienti $k_p = 0,95$. β ning o'zgarish chegarasi $\beta = 1,2 \div 3,6$.

- 11 Asosiy koeffisientlarni hisoblash.

$$A = 0,507 \cdot \sqrt[4]{\frac{S' \cdot a_p \cdot k_p}{f \cdot U_p \cdot B_c^2 \cdot k_c^2}} = 0,507 \cdot \sqrt[4]{\frac{53,33 \cdot 0,0438 \cdot 0,95}{50 \cdot 6,28 \cdot 1,56^2 \cdot 0,89^2}} = 0,125$$

12 $A_1 = 5,633 \cdot 10^4 \cdot k_c \cdot A^3 \cdot a = 5,633 \cdot 10^4 \cdot 0,89 \cdot 0,125^3 \cdot 1,4 = 137,08kg$

13 $A_2 = 3,605 \cdot 10^4 \cdot k_c \cdot A^2 \cdot l_0 = 3,605 \cdot 10^4 \cdot 0,89 \cdot 0,125^2 \cdot 0,075 = 37,6kg$

$$14 \quad B_1 = 2,4 \cdot 10^4 \cdot k_c \cdot k_{\alpha} \cdot A^3(a+b+c) = 2,4 \cdot 10^4 \cdot 0,98 \cdot 1,015 \cdot 0,125^3(1,4+0,45+0,405) = 95,5kg$$

$$15 \quad S_1 = k_0 \frac{S \cdot a^2}{k_o \cdot k_c^2 \cdot B_c^2 \cdot U_a \cdot A^2} = 2,46 \cdot 10^{-2} \frac{160 \cdot 1,4^2}{0,96 \cdot 0,89^2 \cdot 1,56^2 \cdot 1,656 \cdot 0,125^2} = 161,1kg ;$$

$$k_0 = 2,46 \cdot 10^{-2} \text{ mis uchun (Ad-2, 132-bet)}$$

$$16 \quad B_2 = 2,4 \cdot 10^4 \cdot k_c \cdot k_{\alpha} \cdot A^2(a_{12} + a_{22}) = 2,4 \cdot 10^4 \cdot 0,89 \cdot 1,015 \cdot 0,125^2(0,03+0,02) = 16,94kg$$

$$17 \quad M = 0,244 \cdot 10^{-6} \cdot k_{k3}^2 \cdot k_o \cdot k_p \frac{P_k}{a \cdot A} = 0,244 \cdot 10^{-6} \cdot 31,15^2 \cdot 0,96 \cdot 0,95 \frac{2650}{1,4 \cdot 0,125} = 3,27MPa$$

$$k_{k3} = 1,41 \frac{100}{U_k} (1 + e^{-\pi U_a / U_p}) = 1,41 \frac{100}{6,5} (1 + e^{-\pi \cdot 1,656 / 6,29}) = 21,69(1 + 0,436) = 31,15$$

$$18 \quad B = \frac{2}{3} \cdot \frac{A_2 + B_2}{B_1} = \frac{2}{3} \cdot \frac{37,6 + 16,94}{95,5} = 0,38$$

$$19 \quad k_{o,c} = 1,84 \text{ (Ad-2, jadval 3.7)} \quad S = A_1 / 3 \cdot B_1 = 137,08 / 3 \cdot 95,5 = 0,478 \quad k_{np} = 1,06 \text{ (Ad-2, 133-bet)}$$

$$20 \quad D = k_{o,c} \cdot k_{np} \cdot \frac{2}{3} \cdot \frac{C_1}{B_1} = 1,84 \cdot 1,06 \cdot \frac{2}{3} \cdot \frac{161,1}{95,5} = 2,19$$

$$21 \quad x^5 + Bx^4 - Cx - D = 0 \quad , \quad x^5 + 0,38 \cdot x^4 - 0,478 \cdot x - 2,19 = 0$$

Bu tenglamaning echimi $x = 1,16$ $\beta = x^4 = 1,16^4 = 1,81$ ni beradi

22 3,61 va 3,66 ifodalar bo'yicha ruxsat etilgan tok zichligi va tortuvchi mexanik kuchlanishlar qiymatlariga asosan β ning chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz

$$x_j \leq 4,5 \cdot 10^6 \cdot \sqrt{2,4 \cdot 10^{-12} C_1 / (k_o \cdot P_k)} = 4,5 \cdot 10^6 \sqrt{2,4 \cdot 10^{-12} \cdot 161,1 / 0,96 \cdot 2650} = 1,75$$

$$\beta_j = x_j^4 = 1,75^4 = 9,38 ; \quad x_{\delta} \leq \sqrt[3]{60 / M} \leq \sqrt[3]{60 / 3,27} = \sqrt[3]{18,35} = 2,638 ;$$

$$\beta_{\delta} = x_{\delta}^4 = 2,638^4 = 48,43 ;$$

β ning har ikkala olingan qiymatlari ham odatdagidan yuqori.

23 Magnit tizimi bir burchagi massasi

$$G_y = 0,492 \cdot 10^4 \cdot k_c \cdot k_{\alpha} \cdot A^3 \cdot x^3 = 0,492 \cdot 10^4 \cdot 0,89 \cdot 1,015 \cdot 0,125^3 \cdot 1,16^3 = 13,55kg$$

24 3,59 ifoda bo'yicha sterjning aktiv kesimi

$$\Pi_c = 0,785 \cdot k_c A^2 \cdot x^2 = 0,785 \cdot 0,89 \cdot 0,125^2 \cdot 1,16^2 = 0,0147m^2$$

25 To'g'ri ulanish joyidagi tirqish maydoni $\Pi'_3 = \Pi_c = 0,0147m^2$

26 Egri ulanish joyidagi tirqish maydoni $\Pi'_3 = \Pi_c / \sqrt{2} = 0,0147 / 1,41 = 0,01m^2$

27 Transformatorning asosiy o'lchamlari

$$d = A \cdot x = 0,125 \cdot 1,16 = 0,145m; \quad d_{12} = a \cdot A \cdot x = 1,4 \cdot 0,125 \cdot 1,16 = 0,203m;$$

$$d = 0,16 \text{ m qabul qilamiz (standartga yaqin) } a = 1,4 \text{ (Ad-2, jadval 3,4)}$$

$$l = \pi \cdot d_{12} / \beta = 3,14 \cdot 0,203 / 1,81 = 0,352m; \quad 2a_2 = 2 \cdot 0,0533 = 0,1066m$$

(qisqa tutashuv hisobidan)

$$C = D_2'' + a_{22} = 42,2 + 2 = 44,2sm = 0,442m \text{ (Magnit tizimi hisobidan)}$$

$$l_c = l + 2l_0 = 0,352 + 2 \cdot 0,075 = 0,502m$$

28 Bitta o'ramning E.Yu.K

$$u_B = 4,44 \cdot f \Pi_c \cdot B_c = 4,44 \cdot 50 \cdot 0,0147 \cdot 1,56 = 5,09V$$

$$29 \quad \text{Tok zichligi } j_{cp} = 0,746 \cdot k_o \frac{P_k \cdot u_b}{S \cdot d_{12}} \cdot 10^4 = 0,746 \cdot 0,96 \frac{2650 \cdot 5,09}{160 \cdot 0,203} \cdot 10^4 = 2,97 \cdot 10^6 A / m^2$$

II. CHULG'AMLARNI HISOBLASH

Transformatorlarning chulg'amlari va ularning konstruksiyasi. Transformator chulg'amlari deganda, berilgan kuchlanishni olish maqsadida, uramlarda hosil qilinadigan E.Yu.K larning yig'indisini hosil qiluvchi elektr zanjirlarini hosil qiluvchi uramlar jamlanmasi tushiniladi.

Kuch transformatorlari ikkitadan kam bo'lmagan asosiy chulg'amlarga ega bo'ladi. Yuqori nominal kuchlanishga ega bo'lgan transformator chulg'ami yuqori kuchlanish (VN) chulg'ami deyiladi.

Past nominal kuchlanishga ega bo'lgan transformator chulg'ami past kuchlanish (NN) chulg'ami deyiladi. Ular o'rtasida esa – o'rta kuchlanish (SN) chulg'ami deyiladi (Uch chulg'amli transformatorlarda). Chulg'amlarni tayyorlashdagi sarflanadigan materiallar narxi va ularni o'rash uchun to'lanadigan ish haqi transformator narhinig taxminan 50%ni tashkil etadi. O'zakda joylashishiga ko'ra chulg'amlar konsentrik va almashinuvchi turlarga bo'linadi. Almashinuvchi chulg'amlarda YK va PK g'altaklar o'zak balandligi bo'yicha navbatma – navbat o'zaro almashingan bo'ladi.

Almashinuvchi chulg'amlar asosan maxsus transformatorlar uchun qo'llaniladi. Umumiy maqsadli kuch transformatorlarida va maxsus transformatorlarning ayrimlarida odatda konsentrik chulg'amlar qo'llaniladi. Bunda o'zak yaqiniga PK chulg'am uning tashqarisiga esa YK chulg'am joylashtiriladi. Konstruksiyasi va o'rash usuliga ko'ra konsentrik chulg'amlar silindrik g'altakli va vintsimon turlarga bo'linadi. Katta quvvatli transformatorlarda parallel simlarning soni bir necha o'nlargacha etishi mumkin. Shu sababli bunday transformatorlarning PK chulg'ami uchun bir necha to'g'ri burchak kesimli simlardan parallel bajarilgan ko'p yo'lli chulg'amlar qo'llaniladi.

O'zluksiz g'altakli chulg'amda bitta g'altakdan ikkinchisiga simni uzmasdan o'tiladi. Bunday chulg'amning afzalliklariga tayanch yuzasining kattaligi sababli qisqa tutashuvda vujudga keladigan bo'ylama kuchlarga nisbatan katta chidamlilik va sovutish yuzasining kattali kiradi. Shu afzalliklar tufayli o'zluksiz chulg'am keng ko'lamda qo'llaniladi.

Transformator chulg'amlarining uchlari bak qopqog'ida o'rnatilgan maxsus chinni izolyatorlar ichidan o'tgan kesim yuzasi nisbatan katta bo'lgan o'tkazgichlarga ulanib tashqariga chiqariladi.

Zamonaviy transformatorsozlikda kuchlanish klasslari 110 ÷ 1200 kV bo'lgan so'ngi yillarda ishlab chiqarilgan transformatorlarda YK chulg'am uchun to'qima chulg'amlar keng qo'llanila boshlandi.

Past kuchlanish chulg'amini hisoblash

30 PK (NN) chulg'ami o'ramlar soni

$$w_1 = U_{\phi 1} / U_B = 11000 / 5,09 = 2161,1; \quad w_1 = 2161 \text{ ta o'ram qabul qilamiz}$$

31 Bitta o'ram kuchlanishi $U_B = U_{\phi 1} / w_1 = 11000 / 2161 = 5,09V$

32 Chulg'amlardagi o'rtacha tok zichligi

$$j_{yp} = 0,746 \cdot k_o \cdot P_k \cdot U_B / S \cdot d_{12} \cdot 10^4 = 0,746 \cdot 0,96 \cdot 2650 \cdot 5,09 / 160 \cdot 0,203 \cdot 10^4 = 2,97 A / mm^2$$

33 O'ramning taqriban kesimi $\Pi'_B \approx I_{\phi 1} / j_{yp} = 4,86 / 2,97 = 1,64 mm^2$

34 (5.8 jadvaldan) $S = 160 kVA$; $U_{\phi 1} = 11 kVA$; $I_{\phi 1} = 4,86 A$; $\Pi'_e = 1,64 mm^2$ lar bo'yicha yumaloq simli ko'p qatlamli silindrik chulg'amni tanlaymiz (Ad-1, Tixomirov 1976-yil)

35 O'raladigan chulg'am simi sorti va Π'_e bo'yicha 5.1 jadvaldan Π'_e kesimga to'g'ri keladigan sim tanlaymiz. Simning diametri d_1 izolyastiyasiz va d'_1 izolyastiyali, mm. Simning tanlangan o'lchamlari quyidagicha yoziladi:

$$\text{Sim markasi } x \quad n_{e1x} \frac{d_1}{d'_1}, mm;$$

bunda n_{e1} -parallel simlar soni

$$\Pi_B \times 1 \times \frac{1,45}{1,85}$$

$$\Pi_B'' = 1,65 \text{ mm}^2 \text{ Massani oshishi } 5,0\% \text{ Ikki tomonga izolyastiya}$$

qalinligi $2\delta = 0,40 \text{ mm}$

36 O'ramning to'liq kesimi

$$\Pi_1' = n_{\epsilon 1} \cdot \Pi_B'' = 1 \cdot 1,65 = 1,65 \text{ mm}^2$$

37 Tok zichligi

$$j_1 = I_{1\phi} / \Pi_B'' = 4,86 / 1,65 \approx 2,95 \text{ A/mm}^2$$

38 Qatlamdagi o'ramlar soni

$$w_{1q} = \frac{l_1 \cdot 10^3}{n_{\epsilon 1} \cdot d_1'} - 1 = \frac{0,352 \cdot 10^3}{1 \cdot 1,85} - 1 = 189,27 = 189 \text{ ta}$$

39 Chulg'amdagi qatlamlar soni

$$n_{\kappa 1} = w_1 / w_{1\kappa} = 2161 / 189 = 11,4 \text{ qabul qilamiz } n_{\kappa 1} = 12 \text{ ta}$$

40 Ikki qatlamning ichki kuchlanishi, V ,

$$U_k = 2w_{1\kappa} \cdot U_B = 2 \cdot 189 \cdot 5,09 = 1924 \text{ V}$$

41 List qalinligida kabel qog'ozining qatlamlar soni (Ad-2, 4.7 jadvaldan) $3 \times 0,12 \text{ mm}$;
Chulg'am chetlarida qatlamlar aro izolyastiyani chiqishi (bir tomonga) 16 mm

$$\delta_{mk} = 0,12 \text{ mm} \cdot 3 = 0,36 \text{ mm}$$

42 Past kuchlanish tomonida yumaloq simli stilindrik chulg'am qo'llanilganda ikki stilindr orasidagi qatlamlar soni ichki va tashqi g'altaklar uchun teng olinadi $n_{\kappa 1} / 2 = 12 / 2 = 6 \text{ ta}$

43 G'altaklar orasidagi moy kanalining minimal kengligi (Ad-2, 9.2 a) jadvaldan)

$$a_{22}' = 5 - 6 \text{ mm}.$$

44 Chulg'amning radial o'lchamlari

Ekransiz bitta g'altak

$$a_1 = [d_1' \cdot n_{\kappa 1} + \delta_{mk} (n_{\kappa 1} - 1)] \cdot 10^{-3} = [1,85 \cdot 12 + 0,36(12 - 1)] \cdot 10^{-3} = 0,026 \text{ m}$$

Ekransiz ikkita g'altak

$$a_1 = [d_1' \cdot n_{\kappa 1} + \delta_{mk} (n_{\kappa 1} - 1) + a_{22}'] \cdot 10^{-3} = [1,85 \cdot 12 + 0,36(12 - 1) + 5] \cdot 10^{-3} = 0,031 \text{ m}$$

$$\text{Ekran bo'lganda } a_1' = a_1 + \delta_{\kappa p} + 2\delta = 0,031 + 0,0005 + 0,00036 = 0,03074 \approx 0,032 \text{ m}$$

45 Chulg'amning ichki diametri

$$D_1' = d + 2 \cdot a_{01} = 0,16 + 2 \cdot 0,015 = 0,19 \text{ m} = 19 \text{ sm}$$

46 Chulg'amning tashqi diametri

$$D_1'' = D_1' + 2 \cdot a_1 = 0,19 + 2 \cdot 0,032 = 0,254 \text{ m} = 25,4 \text{ sm}$$

47 Sovutilish sirti, m^2

$$\Pi_{01} = c \cdot n \cdot \kappa \cdot \pi (D_1' + D_1'') \cdot l_1 = 3 \cdot 2 \cdot 0,75 \cdot 3,14 (0,19 + 0,254) \cdot 0,352 = 2,2 \text{ m}^2$$

Sterjnlr soni $c = 3$; $n = 2$ g'altaklar soni; $k = 0,75$ chulg'am sirtini izolyastiyali detallar bilan qoplanishini hamda ichki va tashqi sirlarni hisobga oluvchi koeffitsient

48 Chulg'am metall massasi

$$G_1 = 28 \cdot c \cdot D_{yp} \cdot w_1 \cdot \Pi_1 = 28 \cdot 3 \cdot 0,222 \cdot 2161 \cdot 1,65 \cdot 10^{-3} = 66,5 \text{ kg}$$

Yuqori kuchlanish (VN) chulg'amini hisoblash

49 Nominal kuchlanishdagi yuqori kuchlanish chulg'amining o'ramlar soni

$$w_2 = U_{f2} / U_B = 20231 / 5,09 = 3974,6 \approx 3975 \text{ ta}$$

50 Yuqori kuchlanish chulg'ami „Y“ ulanganda kuchlanishni rostlashning bir pog'onasidagi o'ramlar soni

$$w_p = \square U / U_B \cdot \sqrt{3} = 875 / 5,09 \cdot 1,73 = 99,4 \approx 99 \text{ ta}$$


$\square U$ -rostlashning bir pogonasidagi kuchlanish yoki ikki qo'shni shaxobchalar orasidagi kuchlanishlar farqi

$$\Delta U = U_2 \cdot 2,5\% / 100\% = 35000 \cdot 2,5 / 100 = 875 \text{ V}$$

51 Shaxobchalardagi chulg'am o'ramlari soni

36750	$3975+2 \cdot 99 = 4173$	+5%	AX ₁
35875	$3975+99 = 4074$	+2,5%	AX ₂
35000	3975	0	AX ₃
34125	$3975-99 = 3876$	-2,5%	AX ₄
33250	$3975-2 \cdot 99 = 3777$	-5%	AX ₅

Kuchlanishni rostlash uchun (Ad-2, 6.6 rasmdagi a) sxemani tanlaymiz



3-rasm. Yuqori kuchlanish chulg'amida kuchlanishni rostlashning prinsial sxemasi(Qo'zg'atishsiz rostlash).

52 Tokning taqriban zichligi

$$j_2 = 2 \cdot j_{yp} - j_1 = 2 \cdot 2,97 - 2,95 = 2,99 A / mm^2$$

53 O'ramning taqriban kesimi

$$\Pi'_2 = I_{\phi 2} / j_2 = 2,64 / 2,99 \approx 0,88 mm^2$$

54 Ad-2, 5.8 jadvaldan $S_H = 160 kVA$; $U_{2H} = 35000V$

$I_{\phi 2} = 2,64 A$ va $\Pi'_2 = 0,88 mm^2$ bo'lganda yumaloq simli ko'p qatlamli stilindrik chulg'amni tanlaymiz (Ad-1, Tixomirov 1976-yil)

55 Ad-2, 5.1 jadvaldan $\Pi'_2 = 0,88 mm^2$ yaqin kesim $\Pi'_2 = 0,916 mm^2$ ni tanlaymiz sim markasi ПЭЛБО diametri

$$d'_2 = 1,08 mm, \quad 2\delta = 0,31 mm, \quad d''_2 = 1,08 + 0,31 = 1,39 mm.$$

$$\text{ПЭЛБО } x1x \frac{1,08}{1,39} \text{ massaning oshishi } 6\%$$

Simning izolyastiyasi $2\delta = 0,31 mm$

56 O'ramning to'liq kesimi

$$\Pi'_2 = n_{e2} \cdot \Pi'_2 = 1 \cdot 0,916 = 0,916 mm^2.$$

57 Tok zichligi

$$j_2 = I_{2\phi} / \Pi'_2 = 2,64 / 0,916 = 2,88 A / mm^2$$

58 Qatlamdagi o'ramlar soni

$$w_{2k} = \frac{l_2 \cdot 10^3}{n_{\delta 2} \cdot d_2} - 1 = \frac{0,352 \cdot 10^3}{1 \cdot 1,39} - 1 = 252,24 = 252 \text{ ta}$$

59 Chulg'amdagi qatlamlar soni

$$n_{k2} = w_2 / w_{2k} = 4173 / 252 = 16,55 \text{ Qabul qilamiz } n_{k2} = 17$$

60 Ikkita qatlamning ishchi kuchlanishi; V

$$U_k = 2 \cdot w_{2k} \cdot U_B = 2 \cdot 252 \cdot 5,09 = 256,5V$$

61 4.7 jadvaldan list qalinligidagi kabel qog'ozining qatlamlar soni 4 x 0,12mm

$\delta_{mk} 4 \times 0,12 = 0,48mm$. Chulg'am chetlarida qatlamlararo izolyastiyaning chiqishi (bir tomonga) 16mm

62 Qatlamlardagi o'ramlar soni

$$1-9 \text{ qatlam } 252 \cdot 9 = 2268$$

$$10-15 \text{ qatlam } 2545 \cdot 6 = 1509$$

$$16\text{-qatlam } 99 \cdot 2 = 198$$

$$17\text{-qatlam } 99 \cdot 2 = 198$$

Jami: 4173 ta o'ram.

Yuqori kuchlanish chulg'amini ikkita konstantrik g'altaklarga bo'lamiz, ichki B-6 ta qatlam va tashqi Г-11 ta qatlam. G'altaklar orasidagi o'q kanali 9-2a jadvalga asosan $a'_{22} = 5mm$

Impul'sli o'ta kuchlanishlardan himoya qilish uchun chulg'amni ichki qatlami ostidan stilindr sirtiga qirg'ilgan stilindrni hosil qiluvchi 0,5 mm qalinlikda mis simdan ekran o'rnatiladi. Ekran ikki tomondan kabel qog'ozini bilan izolyastiya qilinadi. Ekraning umumiy qalinligi izolyastiya bilan birgalikda 3mm.

63 Chulg'amning radial o'lchami

$$a'_2 = \text{ekran} + B \text{ g'altak} + \text{kanal} + \Gamma \text{ g'altak} = 3 + (6 \cdot 1,39 + 5 \cdot 0,48) + 5 + (11 \cdot 1,39 + 11 \cdot 0,48) = 3 + 10,74 + 5 + 20,57 = 39,31 \text{ mm} = 3,93 \text{ sm} = 0,039 \text{ m.}$$

Qisqa tutashuv kuchlanishini hisoblashlarda

$$a_2 = a'_2 - \delta_{\text{кр}} = 39,31 - 3 = 36,31mm \text{ dan foydalanish kerak}$$

64 Ichki diametr

$$D'_2 = D''_1 + 2 \cdot a_{12} = 0,254 + 2 \cdot 0,027 = 0,308m$$

65 Tashqi diametr $D'_2 = D'_2 + 2 \cdot a'_2 = 0,308 + 2 \cdot 0,039 = 0,386m$

66 Sovutilish sirti

$$\Pi_{02} = c \cdot \kappa \cdot \pi \cdot \frac{D'_2 + D''_2}{l_2} \cdot 10^{-4} = 3 \cdot 1,5 \cdot 0,83 \cdot 3,14 \cdot (0,308 + 0,386) \cdot 0,352 = 2,86m^2$$

67 O'rtacha diametr $D_{\text{ср}} = \frac{D'_2 + D''_2}{2} = \frac{0,308 + 0,386}{2} = 0,347$

68 Chulg'am metall massasi.

$$G_2 = 28 \cdot c \cdot D_{\text{ср}} \cdot w_2 \cdot \Pi'_2 \cdot 10^{-3} = 28 \cdot 3 \cdot 0,347 \cdot 4173 \cdot 0,916 \cdot 10^{-3} = 111,4kg .$$

III. QISQA TUTASHUV PARAMETIRLARINI HISOBLASH.

Transformatorning ikkilamchi cho'lg'ami qisqa tutashib qolganda, ikkilamchi kuchlanish $U_2 = 0$ bo'ladi.

Bu rejimda qisqa tutashuv toklari transformator chulg'amlaridagi nominal toklardan 10-20 marta ortib ketadi. Bu toklar juda katta xavf tug'diradi. Bunda juda katta mexanik kuchlar va termik kuchlar hosil bo'ladi. Shu sababli transformatorlar mexanik va termik jixatlari mustaxkam bo'lishlari zarur.

Transformatorlarni qisqa tutashuvdan himoya qilish uchun himoya vositalari qo'llaniladi. Cho'lg'amlaridagi nominal toklarni hosil qiladigan birlamchi cho'lg'amga beriladigan kichik qiymatli kuchlanishni qisqa tutashuv kuchlanishi deyiladi. Qisqa tutashuv kuchlanishining qiymati transformator shchitida ko'rsatilgan bo'ladi.

$$U_q = \frac{U_q}{U_n} \cdot 100\%$$

GOST bo'yicha qisqa tutashuv kuchlanishi chulg'amning nominal ishchi temperaturasi $+75^{\circ}\text{C}$ ga keltiriladi. Uch fazali ikki chulg'amli transformatorlar uchun

Quvvati MV.A	YuK, kV, nom	U _k %
5-5600	6,3 va 10	5,5
50-2400	35	6,5
3200-4200	35	7,0
5600-10000	35-38,5	7,5
15000-31500	35-38,5	8,0
3200-60000	110-121	10,5

Transformatorning quvvati va kuchlanishi qancha katta bo'lsa, qisqa tutashuv kuchlanishi ham katta bo'ladi.

Qisqa tutashuvda asosiy oqim kam bo'lganligi sababli po'lat o'zakdagi isroflarni hisobga olmaslik ham mumkin. Qisqa tutashuvda quvvat chulg'am mis simlaridagi isroflarni qonlashga sarflanadi.

$$P_q = P_{m1} + P_{m2}$$

Misdagi isroflar a) r_{10} va r_{20} chulg'amlarni o'zgaras tok bo'yicha qarshiliklari bilan aniqlanadigan asosiy isroflarga P_{m0} va b) misdagi qo'shimcha isroflarga (uyurma toklardan hosil bo'luvchi, sochilma oqimlardan bak devorlarida hosil bo'luvchi va hokazo) bo'linadi.

Chulg'am mis simlaridagi isrof asosiy isrof hisoblanadi.

$$P_{m0} = I_1^2 \cdot r_{10} + I_2^2 \cdot r_{20}$$

Qo'shimcha isroflar odatda asosiy isroflarga r_{10} va r_{20} qarshiliklarni $r_1 = r_{10} \cdot k_{r1}$ va $r_2 = r_{20} \cdot k_{r2}$ qiymatlargacha ko'paytirilib qo'shiladi. k_{r1} va k_{r2} qo'shimcha isrof koeffitsientlari.

Shunday qilib

$$P_q = P_{m1} + P_{m2} = I_1^2 \cdot r_1 + I_2^2 \cdot r_2 = I_1^2 \cdot r_1 + I_1^2 \cdot r_1^1 = I_1^2 \cdot r_q$$

Qo'shimcha isroflar chulg'am turiga, sim shakliga, chulg'am tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Normal holatda k_{r1} va $k_{r2} = 1,05 \div 1,15$ ba'zi xolatda bundan ham yuqori bo'lishi mumkin.

Qisqa tutashuv quvvati muhim ekspluatatsion ahamiyatga ega. Standart transformatorlar uchun $P_0 : P_q = 1 : (2,5 \div 4)$


$\frac{P_0}{P_q}$ ning qiymati foydalanish ish koeffitsientining egri chizig'iga katta ta'sir ko'rsatadi.

$\frac{P_{q-n}}{P_n} \cdot 100$ va P_{q-n} - chulg'am temperaturasi $+75^{\circ}\text{C}$ da va $I_1 = I_n$ dagi quvvat.

Ikki chulg'amli bir va uch fazali transformatorlar uchun $\frac{P_{q-n}}{P_n} \cdot 100$ ning qiymatlarini jadvalda keltiramiz.

P_q kVA	$\frac{P_{q-n}}{P_n} \cdot 100, \%$
5 – 20	3,7 – 3
30 – 240	3 – 2
320 – 5600	2 – 1
7500 – 60000	1 – 0,4

- 69 Past kuchlanish chulg'amidagi asosiy isroflar. $P_{och1} = 2,4 \int_1^2 G_1 = 2,4 \cdot 2,95^2 \cdot 66,5 = 1389 \text{ Vt}$
- 70 Yuqori kuchlanish chulg'amidagi asosiy isroflar. $P_{och2} = 2,4 \int_2^2 G_2 = 2,4 \cdot 2,88^2 \cdot 111,4 = 2218 \text{ Vt}$
- 71 Chulg'amlardagi ko'shimcha isroflar



4-rasm. Chulg'amlarda qo'shimcha isroflarni aniqlash(yumaloq simlar uchun).

Past kuchlanish chulg'amidagi qo'shimcha isroflarni hisobga olish koeffisienti.

$$\kappa_{d1} = 1 + 0,044 \cdot \beta_1^2 \cdot d_1^4 \cdot n^2; \quad \beta_1^2 = \left(\frac{d \cdot m}{l} \cdot \kappa_p \right)^2 = \left(\frac{0,185 \cdot 1,79}{35,2} \cdot 0,95 \right)^2 = 0,8$$

bunda d -tanlangan simning (izolyastiyali) diametri

$$d = d_1'' = 1,85 \text{ mm} = 0,185 \text{ sm.}$$

n -sochilma maydon magnit induktyasi liniyalari yo'nalishga perpendikulyar yo'nalishdagi chulg'am simlari soni.

$$n_1 = a_1' : d_1'' = 3,2 : 0,185 = 17 \text{ ta}$$

m - sochilma maydon magnit induktyasi liniyalari yo'nalishiga parallel yo'nalishdagi chulg'am simlari soni.

$$m_1 = l : d_1'' = 35,2 : 0,185 = 190 \text{ ta}$$

PK chulg'amlaridagi qo'shimcha isroflarni hisobga olish koeffisienti.

$$\kappa_{d1} = 1 + 0,044 \cdot 0,8 \cdot 0,185^4 \cdot 17^2 = 1,012$$

Yuqori kuchlanish chulg'amidagi qo'shimcha isroflarni hisobga olish koeffisienti.

$$\kappa_{d2} = 1 + 0,044 \beta_2^2 \cdot d_2^4 \cdot n^2 = 1 + 0,044 \cdot 0,8 \cdot 0,139^4 \cdot 28^2 = 1,01$$

$$n_2 = a_2^1 : d_2'' = 3,9 : 0,139 = 28 \text{ ta}, \quad m_2 = l : d_2'' = 35,2 : 0,139 = 253 \text{ ta},$$

$$\beta^2 = \left(\frac{0,139 \cdot 239}{35,2} \cdot 0,95 \right)^2 = 0,8$$

- 72 Past kuchlanishli ulanma(otvodi) massasi uzunligi uchburchak ulanganganda

$$l_{om\epsilon 1} = 14 \cdot l = 14 \cdot 0,352 = 4,93 \text{ m} = 493 \text{ sm.}$$

73 Past kuchlanish ulanma(otvodi) massasi.

$$G_{om\epsilon 1} = l_{om\epsilon 1} \cdot \Pi_{om\epsilon 1} \cdot \gamma \cdot 10^{-8} = 493 \cdot 1,65 \cdot 8900 \cdot 10^{-8} = 0,072 \text{ kg}$$

$$\Pi_{om\epsilon} = \Pi_{obu} = 1,65 \text{ mm}^2, \gamma = 8900 \text{ kg} / \text{m}^3 - \text{ulanma(otvod) metali zichligi (mis)}$$

74 Past kuchlanishli ulanma(otvodi) dagi isrof $P_{om\epsilon 1} = 2,4 \int_1^2 G_{om\epsilon 1} = 2,4 \cdot 2,95^2 \cdot 0,072 = 1,5 \text{ Vt}$

75 Yuqori kuchlanish ulanma(otvodi) uzunligi $l_{om\epsilon 2} = 7,5 \cdot l = 7,5 \cdot 0,352 = 2,64 \text{ m}$ (yulduz ulanganda)

76 Yuqori kuchlanish ulanma(otvodi) massasi

$$G_{om\epsilon 2} = l_{om\epsilon 2} \cdot \Pi_{om\epsilon 2} \cdot \gamma \cdot 10^{-8} = 264 \cdot 0,916 \cdot 8900 \cdot 10^{-8} = 0,022 \text{ kg}$$

77 Yuqori kuchlanish ulanma(otvodi) dagi isrof $P_{om\epsilon 2} = 2,4 \cdot \int_2^2 G_{om\epsilon 2} = 2,4 \cdot 2,88^2 \cdot 0,022 = 0,44 \text{ Vt}$

78 Bak devorlaridagi isrof; $P_B = 10 \kappa S = 10 \cdot 0,011 \cdot 160 = 17,6 \text{ Vt}$ $k = 0,011$ (Ad-2, jadval 7,1)

79 Qisqa tutashuvdagi to'lik isrof

$$P_q = P_{och1} \cdot \kappa_{d1} + P_{och2} \cdot \kappa_{d2} + P_{om\epsilon 1} + P_{om\epsilon 2} + P_B = 1389 \cdot 1,012 + 2218 \cdot 1,01 + 1,5 + 0,44 + 17,6 = 1405,67 + 2240,18 + 1,5 + 0,44 + 17,6 = 3665,39 \text{ Vt}$$

80 Yuqori kuchlanishi o'rta pog'ona nominal kuchlanish uchun

$$P_q = 3665,39 - 0,05 \cdot P_{och2} \cdot k_{d2} = 3665,39 - 0,05 \cdot 2240,18 = 3553,38 \text{ Vt} \quad \text{yoki} \quad \frac{3553,38}{2650} \cdot 100 = 134\%$$

berilgan qiymatga nisbatan 34% yuqori. Shu sababli past va yuqori kuchlanish chulg'amlari uchun kattarok kesimli simlarni tanlaymiz va tanlangan simlar uchun qayta hisoblashlarni amalga oshiramiz.

Past kuchlanish chulg'ami uchun.

$$\Pi_{Bx1x} \frac{1,68}{2,08} \quad \Pi_1 = 2,22 \text{ mm}^2 \text{ li simni tanlaymiz.}$$

Yuqori kuchlanish chulg'ami uchun

$$\Pi_{Bx1x} \frac{1,30}{1,70} \quad \Pi_2 = 1,33 \text{ mm}^2 \text{ li simni tanlaymiz.}$$

Tok zichligi past kuchlanish chulg'ami uchun.

$$I_1 = \frac{I_{1\phi}}{\Pi_1} = \frac{4,86}{2,22} = 2,189 \text{ A} / \text{mm}^2$$

Yuqori kuchlanish chulg'ami uchun/

$$I_2 = \frac{I_{2\phi}}{\Pi_2} = \frac{2,64}{1,33} = 1,98 \text{ A} / \text{mm}^2$$

Past kuchlanish qatlamdagi o'ramlar soni.

$$w_{1\kappa} = \frac{l_1 \cdot 10^3}{n_{\kappa} \cdot d_1''} - 1 = \frac{0,352 \cdot 10^3}{1 \cdot 2,08} - 1 = 168,2 = 168 \text{ ta}$$

